

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PO‘LATOVA SEVARA MAXMUD QIZI

VOBKENT TUMANI SHEVASINING AREALOGIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Polatova Sevara Maxmud qizi

Vobkent tumani shevasining arealogik tadqiqi.....3

Пўлатова Севара Махмуд РКизи

Ареологическое изучение диалекта Вобкентского района.....25

Polatova Sevara Maxmud qizi

Areological study of the dialect of Vobkent district.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PO‘LATOVA SEVARA MAXMUD QIZI

VOBKENT TUMANI SHEVASINING AREALOGIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiyasi komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2404 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Atoulo Raxmatovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentalar:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodova Nigora Quliyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2023 ____ yil « ____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14, faks: (+99865221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14, faks: (+99865221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « ____ » _____ da tarqatildi
(2023-yil « ____ » _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

G'N. Murodov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.I. G'aybullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda til tarixi va bugunini aks ettiruvchi, hududning dialektal xususiyatlaridan kelib chiqib tilning lisoniy tabiati haqida aniq dalillarni ifodalovchi areal lingvistika borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini turlicha bo‘lganligi uchun ularning so‘zlarida farqlar uchraydi. Xalq tarixi bilan tanishish so‘z etimologiyasini bilishga sabab bo‘ladi. Adabiy til ana shu xalq shevasi asosida ravnaq topadi hamda o‘zining nutqiy imkoniyatlarini ko‘rsata oladi. Bu esa adabiy til me‘yorlarini belgilashda amaliy ahamiyatga ega. Shevaga e‘tibor kuchayotgan bir davrda hududning areal tasnifini akslantiruvchi arealogik tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi ko‘pgina tillarda sheva adabiy tilning asosi hisoblanadi. Arealogik yo‘nalishdagi ishlar tilning nafaqat hozirgi ko‘rinishini, balki uning diaxronik ildizlari, til hodisalarining tarqalish radiatsiyasi, qardosh va noqardosh tillar bilan munosabatini tekshirib, til haqidagi umumiy, yaxlit xulosani ifodalaydi. Milliy tilning zamonaviy va qiyosiy ko‘rinishlarini tahlillash, ularning nozik qirralarini aniqlash va eng asosiysi, lingvistik atlasni yaratish hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Jumladan, bugungi taraqqiyot asrida ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy o‘zgarishlar tilga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Areal lingvistik tadqiqotlar tilning mental xususiyatlarini akslantirishi bilan til va jamiyat aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu maqsadda ekstensiv va intensional taksonlarni belgilash hamda tilning adstart, substrat va superstrat hodisalarini aniqlashni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lgan shevashunoslik masalasiga ham e‘tibor qaratib quyidagi fikrni keltirib o‘tadi: “Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san‘atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashimiz zarur. Shuningdek, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”¹. Bu sa‘y-harakatlar mustaqillikning ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni asrash borasida xalqimiz, ota-bobolarimiz ulug‘lagan yo‘lni davom ettirishda huquqiy asos bo‘ladi. Sheva – shunchaki bir hududga tegishli bo‘lgan xususiy boyluk emas, balki xalq boyligi, g‘ururi, o‘tmishi va kelajagidir. Bugungi kunda sheva birliklarini arealogik yo‘nalishda o‘rganish eng dolzarb masala ekanligi bilan ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрь “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.

yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–6084-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2789-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida areal lingvistikaning taraqqiyoti dialektologik atlaslarning yaratilishi bilan bog‘liq holda fransuz olimlari J.Jileron, Y.Edmon hamda o‘zbek tilshunoslari bilan bog‘liq². “Areal lingvistika” termini ostida, odatda, quyidagi olimlarning faoliyati va ilmiy izlanishlari nazarda tutiladi: Italiya tilshunosligiga taalluqli neolingvistik ta‘limotning bir qator vakillari: M.Bartoli, B.Terrachini; lingvistik geografiya yo‘nalishida: B.Serebrennikov, N.Gadjiyeva; til ittifoqlari haqidagi ta‘limot bo‘yicha Y.Maslov; dialektologiya, lingvistik geografiya va arxeologiya fanlarining tadrijiy rivoji bo‘yicha M.Borodina va uning shogirdlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayaniladi³.

Dunyo tilshunosligida areal lingvistika sohasidagi tadqiqotlar hind-yevropa tillari E.Makayev, slavyan tillari R.Avanesov, N.Tolstoy, german tillari V.Jirmunskiy, roman tillari M.Borodina, turkiy tillar N.Gadjiyeva, bolqon tillari A.Desnitskayalar izlanish olib borib, bir qator yutuqlarga erishildi⁴.

O‘zbek tilshunosligida ham tilni areal jihatdan tadqiq etish bugungi kunda o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohada yirik monografik ishlarining

² Gillieron I. et Edmont E. Atlas linguistique de la France/ Paris, 1902-1910.; Решетов В.В. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 23.

³ Bartoli M. Substrato, superstrato, adstrato // Raports au 5-me Congress international des linguists Bruges. 1939 – Б. 59-65.; Террачини Б. Субстрат // Современное итальянское языкознание. М., 1971. – С.17-55.; Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. – М., 1973. – С. 120-167.; Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа. М., 1979. 263с.; Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М., 1977. 253с.; Бородин М.А. Проблемы лингвистической географии. – М., Л., 1966. 220 с.

⁴ Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареальной лингвистики. – М., 1964. 59 с.; Аванесов Р.И. Очерки русской диалектологии. – М., 1949. Ч. 1. 336с.; Толстой Н.И. О соотношении центрального и маргинального ареалов в современной Славии // Ареальны исследования в языкознании и этнографии. Л., 1977. –С. 37-56; Жирмунский В.М. Немецкая диалектология. – М. 1956. 636 с.; Бородин М.А. Проблемы лингвистической географии. – М., 1966. 220 с.; Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа. М., 1979. 263 с.; Десницкая А.В. К вопросу о предмете и методах ареальной лингвистики // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Л., 1977. – С. 22-29.

yuzaga kelishi endilikda til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal lingvistik metodlar asosida ilmiy jihatdan tekshirish olib borishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda A.Jo‘rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, I.Darveshovlar shevalarni arealogik yo‘nalishda o‘rganishdi⁵. Bugungi kunda bu sohada S.Ashurboyev bir qator yutuqlarga erishib kelmoqdalar⁶.

O‘zbek shevalarining barcha hududiy ko‘rinishlari lingvoareal usulda to‘liq tadqiq qilingan emas. Bu holat Vobkent tumani o‘zbek shevasiga ham tegishlidir. Tadqiqot obyekti bo‘lgan Vobkent tumani o‘zbek shevasi o‘ziga xos til xususiyatlari bilan boshqa shevalardan farqlanadi. Ushbu ish Vobkent tumani o‘zbek sheva xususiyatlarini ilk bor lingvoareal usulda o‘rganishga qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020-2024-yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Vobkent tumani misolida shevalarni areal-lingvistik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Vobkent tumani o‘zbek xalq shevasining tarixi, hududiy jihatdan yondosh bo‘lgan shevalar hamda ularning o‘zaro ta’siri kabi masalalarni yoritish;

Vobkent tumani shevasining vujudga kelish va rivojlanish tarixini kuzatish hamda fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatini o‘rganish;

Vobkent tumani shevasi leksikasidagi keng iste’mol so‘zlarning qo‘llanish darajalarini belgilash;

Vobkent tumani shevasining arealogik xususiyatlarini tadqiq etishda adstrat hodisasining ta’sirini o‘rganish;

Vobkent tumani shevasidagi til birliklarining areal tarqalishini belgilash hamda ularni xaritalashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tili Vobkent tumani shevasi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Vobkent tumani shevasining fonetik, grammatik leksik birliklar va tillararo aloqalar jarayonida yuz beradigan lahja va shevalardagi integratsion (yaqinlashish, birlashish) belgilar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Sinxron aspektlarda qiyosiy, tavsifiy va xaritalashtirish tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁵ Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент, 1991. – С.218.; Мухаммеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана. Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. – с. 44; Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000. – Б 36.; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоарал талқини. –Тошкент, 2006. – Б 30.; Дарвешов И. Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи. Филол. фан. бўй. фалсафа д-ри (PhD)...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б 54.

⁶Ashurboyev S. Areal lingvistikada innovatsiya muammosi. // O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari. Konfrensiya materiallari. 2020. Lingvistik areal va uning tiplari talqiniga doir. // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va milliy qadriyatlar. Konfrensiya materiallari. 2020.

Vobkent tumani shevasining areal-lingvistikasi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy me‘yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini tartibga solish, tilning imloviy va orfoepik qoidalarini takomillashtirishi aniqlangan;

xaritalashtirish orqali olingan lisoniy ma‘lumotlar sheva vakillarining etnogenezi, urug‘ va qabilalarning migratsiyasi, birlashish yoki ajralish jarayonlari haqida ma‘lumot olishda, Vobkent tumani o‘zbek xalq shevasi bo‘yicha to‘plangan materiallar, shevaning o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi izoglossalar bilan dalillangan;

O‘zbek xalq shevasi orqali faqat tekshirilayotgan sheva leksikasiga mansub bo‘lgan dialektlarning aniqlanishi va lisoniy xususiyatlarning berilishi “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dan o‘rin olmagan 40 dan ortiq dialektning ajratilganligi bilan isbotlangan;

Vobkent tumanida til hodisalarining tarqalish hududi aks etgan 70 ga yaqin xaritaning berilishi va bu landshaftlarda sheva vakillarining etnogenezi, urug‘ va qabilalarning migratsiyasi, birlashish yoki ajralish jarayonlarini aks ettirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Areal lingvistik izlanishlarning muhim tomoni ular o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy me‘yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini boyitish, tilning imloviy va orfoepik qoidalarini takomillashtirishi aniqlangan;

dialektologik tadqiqotlar kamayib areal lingvistik izlanishlarga e‘tibor berilayotgan bir davrda til hodisalarini yangi aspektda o‘rganishni taqozo qiluvchi tadqiqotlar va metodik ishlar yaratilishiga qo‘l kelishi asoslangan;

areal lingvistik tadqiqotlar xalq tarixi bilan bog‘liqligini inobatga olgan holda o‘rganilayotgan hudud etnografiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalaridan dialektologiya, til tarixi fanlarining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda foydalanish mumkin. Tilshunoslikning dialektologiya, til tarixi, etnolingvistika, lingvokulturologiya, uslubshunoslik kabi yo‘nalishlarida darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda ahamiyatli;

xaritalashtirish orqali olingan lisoniy ma‘lumotlar sheva vakillarining etnogenezi, urug‘ va qabilalarning migratsiyasi, birlashish yoki ajralish jarayonlari haqida ma‘lumot olishga imkon berdi. Vobkent tumani o‘zbek shevasi bo‘yicha tuzilgan xaritalar kelajakda yaratiladigan “O‘zbek tili atlas” uchun muhim manba bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilgan materiallarning respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqot natijalarining turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Vobkent tumani o‘zbek xalq shevasini qiyosiy-tarixiy va lisoniy-jug‘rofiy

usullardan foydalangan holda areal-lingvistik tahlil qilingani, hududning o‘ziga xos izoglossalari aniqlanganligi, hudud leksikasiga xos bo‘lgan 40 dan ortiq dialektning ajratilganligi, til landshaftini aks ettirgan 70 ga yaqin arealogik xaritaning keltirilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dialektologiya, til tarixi fanlarining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda foydalanish mumkin. Tilshunoslikning dialektologiya, til tarixi, etnolingvistika, lingvokulturologiya, uslubshunoslik kabi yo‘nalishlarida darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Vobkent tumani shevasining areal-lingvistikasi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy me‘yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini tartibga solish, tilning imloviy va orfoepik qoidalarni takomillashtirishi aniqlangan ma‘lumotlardan A-OT-2021-2 raqamli “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 16-noyabrdagi 06-03-1-3-son ma‘lumotnomasi). Natijada to‘plangan shevalarga doir misollar elektron platformaning lug‘at qismidan o‘rin olib, lingvistik ta‘minot vazifasini bajargan;

xaritalashtirish orqali olingan lisoniy ma‘lumotlar sheva vakillarining etnogenezi, urug‘ va qabilalarning migratsiyasi, birlashish yoki ajralish jarayonlari haqida ma‘lumot olishda, Vobkent tumani o‘zbek xalq shevasi bo‘yicha to‘plangan materiallar, shevaning o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi ma‘lumotlardan Buxoro davlat universitetida Yo-A-1-9 raqamli “Aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko‘rsatish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 14-apreldagi 04-04/04-451-son ma‘lumotnomasi). Natijada Vobkent tumani shevasining arealogik xususiyatiga doir lingvistik materiallar orqali asoslangan;

O‘zbek xalq shevasi orqali, faqat tekshirilayotgan sheva leksikasiga mansub bo‘lgan dialektlarning aniqlanishi va lisoniy xususiyatlarning berilishi “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dan o‘rin olmagan 40 dan ortiq dialektning ajratilganligi borasidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlari va “Asrlarning asraganlari” radioeshittirishlari ssenariylarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 14-noyabrdagi 1-287-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar mazmunan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3ta respublika hamda 2

ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan. 2 ta ilmiy axborot va ma'ruza tezislari xalqaro jurnal va to'plamlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqlari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek tili Vobkent tumani shevasi va uning arealogik ildizlari”** deb nomlangan va uch fasldan tarkib topgan. Uning ilk fasli *“Dialektologiya va areal lingvistika munosabati”* deb atalgan. Areal lingvistika dialektologiyaning uzviy davomi bo'lib, ikkala yo'nalishning ham tekshirish obykti dialekt hisoblanadi. Chunki dialekt tarixan tarkib topgan hududiy til birligidir.

Areal lingvistika lisoniy hodisalarning ma'lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o'rganuvchi yo'nalishdir. Areal lingvistika til xususiyatlarini muayyan hududlarda tarqalganini umumlashtirib, areal umumiylikni ko'rsatadi hamda shu hududlarning izoglossalarini aniqlab ularni xaritalashtirish ishi bilan shug'ullanadi. Areal lingvistika tushunchasi va atamasi Marte Julio Bartole tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslikka kiritilgan bo'lsa-da, ammo arealogik tadqiqotlar o'zining uzoq tarixiga ega⁷. Shevashunoslikdagi ko'pgina ishlar areal lingvistik tadqiqotlarga qaratilgan edi. Xususan, o'zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yilda Y.D.Polivanov ko'rsatib o'tgan⁸. 1944-yilda professor A.K.Borovkov tomonidan *“O‘zbek sheva va lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar”* anketasi tuzildi⁹. V.V.Reshetov o'zbek shevalari dialektologik atlasini tuzish tamoyillarini belgilab, Qurama o'zbek shevalarining 49 ta areal kartasini tuzgan¹⁰. Professor M.Mirzayev 1955-yilda *“Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa”* tuzib¹¹, ko'pgina ilmiy muassasa va viloyatlarga tarqatgan edi. Filologiya fanlari doktori A.Aliyev 1964-yilda *“Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa”*¹² chop yettirdi. Professor A.G'.G'ulomov rahbarligida 1976-yilda *“O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma”*

⁷ Bartoli M. Saggi di linguistica spaziale. – Torino, 1945, 306.

⁸ Поливанов Е. Д. Материалы по грамматике узбекского языка, выпуск 1. – Ташкент. –1935, – С. 11-15.

⁹ Боровков А. К. Узбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, –1944.

¹⁰ Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка. — «Тезисы докладов II регионального совещания по диалектологии тюркских языков». – Казань, –1958. – Б. 34

¹¹ Мирзаев М. Бухоро областидаги ўзбек шеваларини ўрганиш учун анкета. – Бухоро, 1955. – Б. 64

¹² Алиев А. Узбек тилининг Наманган диалекти бўйича материал тўпловчилар учун анкета. – Наманган, 1964. – Б. 86

yaratildi¹³. O‘zFA A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining o‘zbek dialektologiyasi bo‘limida Sh.Shoabdurahmonov boshchiligida Toshkent viloyati shevalari atlasini tuzilgan¹⁴. Sh.Shoabduramonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. O‘tgan asrning 70-yillarida Qashqadaryo shevalari atlasini yaratildi¹⁵.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, areal lingvistika, lingvistik geografiya, areal tilshunoslik, arealogiya, dialektografiya kabi bir nechta terminlar bilan ushbu yo‘nalish nomlanib, bir qancha chalkashliklarga sabab bo‘lib kelmoqda. O.S.Axmanovning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da “areal lingvistika” “hududiy tilshunoslik” deb, “lingvistik geografiya” esa “dialektografiya” deya talqin qilinadi¹⁶.

Ko‘pgina olimlar (B.A.Serebrennikov, A.V.Desnitskaya¹⁷) “areal lingvistika” terminidan butunlay voz kechishni va uning o‘rnida “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llashni taklif qiladilar. Rossiyalik olimlar N.Gurov va A.Zograflarning ta’kidlashicha, “areal tilshunoslik” bevosita bir-biriga ta’sir qilgan, munosabatga kirishgan tillarni, tillararo aloqalarni o‘rgansa, “areal lingvistika” nafaqat o‘zaro munosabatga kirishgan tillarni, balki sheva va lahjalarni o‘rganishni ham qamrab oladi. M.A.Borodina lingvistik geografiya va areal lingvistika tushunchalarini farqlashni taklif etadi. U lingvistik geografiyani “lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti” sifatida va areal lingvistikani esa “areallar teoriyasi” (arealogiya) sifatida qarash to‘g‘ri deya ta’kidlaydi¹⁸. D.I.Edelman ham areal lingvistikani – hozirgi tillarning yoyilish hodisasini qadimgi areallar asosida o‘rganuvchi soha sifatida talqin qiladi¹⁹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda lingvistika va tilshunoslik bir ma’noda qo‘llansa-da, areal tadqiqotlarda ular o‘ziga xos ma’no nozikliklariga egadir. Dialektologiya sheva va lahjalarning bir makondagi umumiy xususiyatlarini akslantirsa, areal lingvistika makon bilan emas, balki hodisa bilan ish ko‘radi. Dialektal so‘zlar chegarasi ma’lum hudud bilan belgilanadi. Areal lingvistikada esa hodisaning tarqalish izoglossasi hudud vazifasini bajaradi. Shu jihatdan areal lingvistika xususiy aspektda o‘z faoliyatini olib borib, hodisaga nisbatan umumiy xulosalarni bera oladi.

Bobning ikkinchi fasli “*Tarixiy-etnolisoniy tasnif*” ga bag‘ishlangan. Tumanning sheva xususiyatlaridagi rang-baranglikning kelib chiqish genezisi, leksik-semantik xususiyatlari tumandagi joy nomlarining lingvogeografik, etnolingvistik, lingvokulturologik, onomastik-grammatik belgilari, mahalliy

¹³ Алиев А., К.Н.Назаров Узбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент, 1976. – Б. 85

¹⁴ Шоабдурахмонов Ш. Узбек тилининг диалектологик атласи. // «Узбек тили ва адабиёти», –1969 йил, 3-сон. – Б. 34-40

¹⁵ Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. Тошкент, –1972 – Б. 34; Шу м у а л л и ф . Узбекские народные говоры Қашқадарьинской области. –Ташкент, 1978. – Б. 64

¹⁶ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: 1906. – С. 60.

¹⁷Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. М., 1973. – С.120-167. Десницкая А.В. К вопросу о предмете и методах ареальной лингвистики // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. Л., 1977. – С. 22-29.

¹⁸ Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. М., Л., 1966. – С. 22.

¹⁹ Q.Olloyorov. Areal lingvistika, o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T: “Adabiyot uchqunlari”, 2020.

aholining turmush tarzi, istiqomat o'ri, milliy-madaniy qadriyatlari, kasb-kori, diniy e'tiqodiy qarashlari asosidagi ma'lumotlar asosida o'rganilgan.

Vobkent tumani o'zbek, tojik, tatar, turkman, qozoq, qoraqalpoq, ozarbayjon, qirg'iz, ukrain, rus va boshqa millat vakillari yashovchi maskandir. Bular bir hududda o'zaro muloqot qilishadi. Shuning uchun ham bu yerning sheva xususiyatlari o'ziga xosdir.

2020-yil ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, Vobkent tuman markazi sanalib, 3 shaharcha (Navbahor, Shirin, Kosari), 44ta MFY (mahalla fuqarolar yig'inlari), qishloq aholi punktlari soni 180 tani tashkil qiladi.

Qadimdan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar sababli bir hududda turli qabilalar, qavmlar, elatlar yashashgan. Bu esa o'z-o'zidan ularning nutqiga, lug'at boyligiga ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Bilamizki, arablar istilosidan keyin Buxoroda, ayniqsa, Somoniylar sulolasi davrida hunarmandchilikning rivojlanishi kengaydi. Hunarmandchilikning kuchli taraqqiy eta borishi bilan ko'pgina aholi punktlari o'sha joy odamlari shug'ullanadigan kasb turi bilan atala boshlandi. Buning dalili sifatida Zargaron, Latifsobungar, Dukchilar, Chitgaron, Sartaroshlar, Halvogaron, Charmgaron, Toqido'z, Novvoy, Bo'yrafof, Astarbof, Arobachi, Bo'yinturuq, Oblago'y, Asbob, Sarkad, Choyxona, Pichoqchilar va boshqa qishloq nomlarini ko'rsatishimiz mumkin. O'baliklar qadim-qadimdan kulolchilik bilan shug'ullangan. O'ba qishloqlari nomi ham shu hunar bilan bog'liq.

X asrdan keyin islom dini keng tarqalib, siyosiy kuch sifatida to'la namoyon bo'lganidan so'ng esa ayrim aholi punktlari avliyo, shayx va boshqa din arboblarning nomlari bilan atala boshlagan va bu jarayon uzoq davom etgan. Niyozxo'ja, Xo'japorso, eshonlar, Maxsumlar, Boboshex (Boboshayx), Raboti eshon, Shexon (Shayxon), Rabotishex (Rabotishayx), So'filar, So'fidehqon kabi qishloq nomlari shu jarayonning natijasi. Qadimda juda ko'p qishloq nomiga rabot, qo'rg'on kabi so'zlar qo'shilgan. Bunday qishloqlar toifasiga tumandagi Xosrabot, Beshrabot, Kaltarabot, Rabotisariq, Qumrabot, Chorrabot, Oqrabot va boshqalarni kiritish mumkin. Yana shunday qishloq nomlari borki, ular din va diniy shaxslarga bog'liq bo'lgan. Jumladan, Niyozxo'ja, Eshonlar, Maxsumlar, Xo'jalar, Boboshex, So'fidehqon, Imomqozixon, Xo'japorso, Pirmast kabilar bunga misol bo'ladi.

Ba'zan qo'shni, ba'zan aralash holda yashash shevaning xilma-xil bo'lishiga sabab bo'lgan. Jumladan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Vobkent tuman shevasida ham umumturkiy so'zlar o'zlashgan so'zlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi. Buni to'plangan materiallar tasdiqlaydi. Vobkent tumani ham jug'rofiy jihatdan murakkab joylashgan. Ma'lumki, o'zbeklar, tojiklar, turklar ba'zi hududda alohida, ba'zisida esa aralash holda yashashadi (1-xaritaga qarang).

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Vobkent tumanining u yoki bu geografik mintaqasi – o'zbek tili shakllanishiga asos bo'lgan dialekti – o'z xususiyatlarining mintaqaviy tavsifi bilan o'ziga xos takson hosil qiladi. Vobkent tumani areal massivi uni boshqa turkiy-zabon hududlardan ajratib turadigan bir qator taksonomik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Bobning uchinchi fasli “*Vobkent tumani shevasi va adabiy til*” deb nomlangan. Vobkent tumani shevasida o‘zining fonetik va morfologik tarkibi jihatdan, shakl va ma’noda farqlanadigan bir qator dialektal so‘zlar borki, o‘zbek adabiy tilida muqobili uchramaydi. Bunday so‘zlar mazkur shevaning egasi bo‘lgan aholining turmush tarzida qo‘llaydigan aniq predmet va hodisalarning leksik-semantik ifodasi sifatida Vobkent tumani aholisining o‘zaro munosabatlarida, fikr almashinuvlarda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Vobkent shevasi leksikasi rang-barang va turli-tuman sohalardagi so‘zlarni o‘z ichiga qamrab olgan shevalardan biridir. Yig‘ilgan lingvistik dalillarni mavzular bo‘yicha tasnif qilinsa, shevaga xos leksik birliklar quyidagi mavzuiy guruhlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Inson tana a‘zolari va qarindosh nomlari. Yelka – shɔnə; jimjiloq – jɔmjɔlɔq, lilichə; bo‘yin – gərdən; tish – dəndən; baqbaqa – sɔqɔq. Ota-onaning tog‘asi – tɔg‘ɔybɔbɔ; ota-onaning xolasi – xɔlɔpɔshshə.

Kundalik turmushda ishlatiladigan nomlar. Belkurak – ləpətkən; chorshəg‘ə; tirna – gʻrɔbɔɔl – tʻrɔmɔlɔg‘ɔɔch – tʻrɔmɔ – lɔvuch – xəskashək – hətəkashək; nonpar – nɔnpər – chuq-chuq – chuq-chuqə – tʻkəch – chuqʻpər – pərchuq; beshik – beshɔk – gəvɔvɔrə; supra – pɔstək – supra; javon – rəvɔq; chelak – sətɔl – bəqʻr – sətɔl – chəkər; o‘tin – puməchɔp – g‘ozəpɔyə – hezm;

Taom va unga aloqador nomlar. Ugra – kesgənɔshɔ – unɔshɔ – ləxchək – shörtöppə – ugrəshɔ/ugrəshörvə; tuxumbarak – tuxumɔshɔ – tuxumprɔmɔn – yumurtəbərək; sirbirinj – sɔrbɔrɔnj – shɔrbɔrɔnch – shɔrguruch – ɔqoshɔ – ɔqrəlɔv – sutbɔrɔch; sambo‘sa – səmbösə – bɔchəkchə – beryɔ/berɔ.

Chorvachilik va u bilan bog‘liq nomlar. En – chorva mollarini qulog‘ini kesib, belgi qo‘yish. Əshəl – podachiga beriladigan xizmat haqqi sanaladi. Chɔbɔsh – echki sutining kamligi bois o‘shidan qolgan uloq. Gumɔk – sovliq sutini emgani bois o‘shidan qolgan qo‘zi. Jɔrɔq – toza tug‘ilgan qo‘zichoq. Jvɔq – tug‘ilganiga 5-10 kunlik bo‘lgan qo‘zichoq. Chög‘rɔ – itning bolasi. Könəjösh – sigir ko‘p muddat sut berib, keyin sutini kamaytirishi.

Kiyim va unga aloqador nomlar. Yengsizcha – bɔchəkchə – bɔchɔkchə – beengchə – yengsɔzchə – jələkchə – bɔchɔk – jɔppɔchə; Kulətə/kultəpöshək – sochni yig‘ib yuradigan qalpoq. Tuzilishi: bosh qismi do‘ppiga o‘xshagan aylana bo‘lib, orqasidan uzun soch yig‘ib qo‘yiladigan bo‘ladi. Ləchək – bosh kiyim.

Urf-odat va marosim bilan bog‘liq nomlar. Chəqlɔq – unashtiruv marosimi; serəptəp (tojik)– barvaqt o‘tkaziladigan janoza. həftək – tug‘ilganiga 7 kun bo‘lgan chaqaloqning vafot etishi. Kəltəchəpöshɔn 13 yoshlikda yangi kiyim kiyish. Mɔyɔnbəndən – qo‘l berish marosimi.

O‘zbek shevalarida, jumladan, Vobkent tumani shevalarida biror predmet, ish-harakat, belgi-munosabatni bildiradigan so‘zlar adabiy tilda boshqa ko‘rinishda (variantda) o‘z ifodasini topgan. Ular qanday nom bilan qo‘llanishidan qat’iy nazar, ma’nolari bitta bo‘lib, faqat shevalararo turli nomlar bilan yuritiladi. Mazkur shevada mavjud bo‘lgan ba’zi dialektal so‘zlar o‘zbek adabiy tilida o‘z variantiga ega. Masalan, belanchak – əlməch/əlvənch; xaskash – tʻrnə, tʻrɔnə, gʻrəbɔl,

търмөлөг'ъч, лувуч, хәскәшаләк, һәткәшәк; бо'yin – гәрдән; қирг'ич – сьхәк, турптәрәшә, қырқырәк; bekinmachoq – yoshьnbәchәloq.

Xalq jonli so'zlashuv tili rang-barang bo'lib, o'zbek tili nutq imkoniyatlaridan juda unumli foydalangan holda turli til birliklarini bir qancha variantda qo'llay olganligi bilan ajralib turadi. Bu nutqiy imkoniyatlarning amaldagi ko'inishini Vobkent tumani shevalarida o'zbek adabiy tilida muqobili uchramaydigan bir qator so'zlar asosida ko'rish mumkin. Masalan, non mahsulotini pishirish uchun ishlatiladigan nonpär – chuq-chuq – chuq-chuqә – tьkәch – chuqpär – pәрchuq kabi so'zlarning hech biri adabiy tilda uchramaydi.

Mazkur shevaning barcha hududlarida qo'llanadigan, adabiy tilda uchramaydigan dialektal so'zlarga yana quyidagilarni keltirish mumkin. Rәjjә – yerni tekislashda ishlatiladigan asbob (tojik shevalarida rachcha shaklda uchraydi. O'lchov asbobi); örpән – hech narsa ekilmagan bo'z yer. Sho'r bosib hech narsa ekishga yaramay qolgan yerga nisbatan qo'llanadi; mәттық – bema'ni, huda-behudaga gapiradigan odam; shevән – xamrosh yoyiladigan asbob; nәvqәn – bug'doy, arpa boshog'i; һöрықмәқ – havo yetishmasligi; kәndә bölmәқ – kasallanib, biroz tuzalib, yana og'rib qolish; әтә қәль – kattalarning gapiga aralashadigan bola.

Vobkent tumani shevalari bo'yicha to'plangan materiallarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mazkur shevadagi mavjud bir qator so'zlar adabiy tilimiz lug'at tarkibida yo'q, boshqa bir guruh so'zlar esa adabiy til lug'at tarkibidagi so'zlardan yo shakl yoki ma'no jihatidan farqlanadi. Shu boisdan tadqiqot obykti bo'lgan Vobkent tumani leksikasidagi shevaga xos so'zlarni o'zbek adabiy tili leksikasiga qiyoslab tasnif qilish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Vobkent tumani shevasida lingvoareal xususiyatlarning o'zaro munosabati”** nomli ikkinchi bobi ikki fasldan iborat. Uning birinchi fasli *“Vobkent tumani shevasi intraduksiyasida o'ziga xoslik”*ni o'rganishga qaratilgan. Areal tilshunoslikda takson atamasi juda faol qo'llanadi. Bu tushuncha hududning xususiy jihatlariga ko'pincha to'g'ri keladi. Shuning uchun ham areal lingvistikani umumiy va taksonomik qismlarga bo'lish mumkin. Umumiy areal lingvistika areal jarayonlarning barcha til lahjalarida qo'lanishi bilan izohlanadi. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi ko'proq umumiylik darajasidagi modellarni, qonun va nazariyalarni ishlab chiqish va takomillashtirishdir. Shunday qilib, areal lingvistikaning nazariy tarkibiy qismi hududlarning o'ziga xos modellarini qurish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Taksonomik areal lingvistika tildagi taksonlarning o'ziga xosligini, farqlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ekstensiv taksonga nutqdagi dialektal bo'lmagan chet tildagi so'zlar, o'zbek shevalarining boshqa dialekt zonalaridagi o'zaro ta'sir orollari kiradi. Vobkent tumani dialektida qo'llanuvchi manglay va peshona so'zlari ekstensiv taksondir. Manglay so'zi o'zbekcha, peshona so'zi tojik tilidan kirib kelgan bo'lsa-da, hududning taksonomik xususiyatidan kelib chiqib, peshona dialekti faol qo'llanadi.

Ekstensiv taksonda dialektik birliklar aynan qabul qilinishi yoki ularda ma'no siljishi ro'y berishi mumkin. Yuqoridagi misolda peshona so'zi manglay so'zi bilan

to'la moslashadi. Vobkent tumani shevasida bunday moslashish doim ham teng kelavermaydi. Arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan bosh-oyoq sarpo (tojik tilida sar – bosh, poy - oyoq), lahm go'sht (arabcha lahm – go'sht) kabi birikmalarda buni sezish mumkin. Bu birikmalarda aynan bir so'zning takrorlanayotgani so'z o'zlashgan til massivida ma'lum bo'ladi. Ammo bu o'zlashma so'zlar o'zbek tilida, xususan, tuman qishloqlarida o'z ma'nosida anglashilmaydi. Ular semantikasida hududiy jihatdan o'zgarish ro'y bergan. Bosh-oyoq sarpo deganda biz biror kishiga in'om etiladigan ust-boshni, lahm go'shtda suyaksiz go'sht ma'nosini anglaymiz. Bundan ko'rinib turibdiki, so'zlarning o'zlashishi va qo'llanish doirasi hududning ekstensiv taksoniga bog'liq. Chunki o'zimizda yo'q bo'lgan ma'no va so'zni o'zlashgan tildagi ma'noda emas, o'zimiz bilgan ma'noda qabul qilganmiz. Shuning uchun ham hududning ekstensional taksonomik xususiyatlarini o'rganish muhim sanaladi.

Intensive takson – ma'nosi nutq jarayonida yuzaga chiqadigan izoglossalarning muayyan arealda tarqalishidir. Chaga so'zi Vobkentning Shofirkon tumani bilan chegara qishloqlarida nafaol, Shofirkon tumanida faol qo'llaniladi. Vobkent tumanida qum, reg so'zlarining qo'llanishi faol sanaladi.

Ushbu tumanda shunday so'zlar borki, ularni boshqa lahja va shevalarda tushunish qiyin. Vobkentliklar hol-ahvol so'rashayotganda mazangiz yaxshimi? birikmasini qo'llaydi. Yashamoq so'zini "turadi" bilan (Buxoroda turadi) ifodalaydi, avtobusni saqlang, qalin dugona, yamonam kech bo'ldi, aytib yotibdi, tozayam (rosa ma'nosida) kabilar tez-tez ishlatiladi. Taxlamoq – biror ishni bajarmoq semasida qo'llanadi. Aslida, biror narsani ustma-ust tartibga qo'ymoq; istamoq – qidirmoq, tuman shevasida izlamoq: sizni 2 kundan buyon istab yuribman. Mag'iz – ko'rpacha mag'zi, orasi, o'rtasi ma'nolarida qo'llaniladi. Nordon – tursh, qaptol – yon, qattiq – baland (qattiqroq o'qing, eshitmayapman.) vag'ar – shovqin, baloday bilmoq – yaxshi bilmoq, sovuq ushtim – sovuq yedim, ukol etmoq, ukol qozdi – ukol o'tkazdi, yomon yiqildim, yemadi – o'xshamagan ish, do'ppi – koptok, unchi/ushki – u kishi.

Toshkent shevasida "poylamoq" so'zi "kutmoq" ma'nosida qo'llansa, (poylamoq – biror kimsa yoki narsaning kelishni kutmoq. Tramvay poylamoq²⁰) Vobkent tumani qishloqlari dialektida mazkur so'z biror kishini imi-jimida kuzatmoq ma'nosida ishlatiladi. Masalan, kimni poylab turibsiz? Poylaganim yo'q, kutib turibman.

Intensional taksonlar hududning o'ziga xosligini, reliefi, tabiati bilan birga ifodalaydi. Vobkentliklar nutqida "Biznikiga chiqing" shakldagi gap qo'llanmaydi. Ushbu ma'noni beruvchi "bizanikiga boring", "bizanikiga yuring" shaklidagi birliklar bilan ifodalanadi. Chiqing tarzida qo'llanganda me'yor buzilgan sanaladi. Ushbu birlik Toshkent hududi uchun xos. Chunki hududning tog'likda joylashganini inobatga olsak, ular qo'shni xonadonga chiqqan yoki tushgan. Vobkent tumani esa vohada joylashgan.

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 90.

Takson atamasi umumlashtirish, birlashtirish ma'nolarida qo'llansa-da, hududning tabiiy sharoiti, atrof-muhiti, geografik joylashuvi bilan farqlanadi. Shu jarayonda intraduksiya, ya'ni o'z tabiiy arealidan ilgari uchramagan massivlarda qo'llanishi yuz beradi. Mazkur hududlarda qo'llangan izoglossalar sheva irradiatsiyasi va innovatsion markazini ko'rsatib beradi.

Bobning ikkinchi fasli "*Azonal hududdagi konvergenzialovchi omillar: adstrat, substrat, superstrat*" hodisalari tadqiqiga bag'ishlangan. Til juda murakkab, benihoya serqirra va o'ziga xos hodisadirki, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha o'rganish mushkul. Tilshunoslikning nazariy grammatikasi, tilshunoslikning amaliy grammatikasi, tilshunoslikning tarixiy grammatikasi va boshqa shu kabi yo'nalishlardan bilsa bo'ladiki, tilga xilma-xil, shu bilan birga, bir-biridan farqli yondashuvlar uchraydi. Albatta, bunday bo'lishi tabiiy jarayondir. Tildagi turli xulosalarga kelinishiga aniq asos bilan ish ko'rilganligi ayon. Aynan birgina jihatning xususiyatlarini ochishga harakat, tilning murakkab mohiyatga daxldor o'ziga xosliklari shu omillar bilan o'z isbotini topadi. Ellar va tillararo o'zgarishlar faqat qabila va elatlarning tarkibiy o'zgarishlari bilan chegaralanib qolmasdan ularning tillararo farqlariga ham sabab bo'ladi. Tillarning hududiy jihatdan yaqinlashishi printsiptial jihatdan tillarning genetik munosabatlariga bog'liq emas. Ham yaqin, ham bog'liq bo'lmagan tillar yaqinlashishga bo'ysunadi. Lingvistik yaqinlik – bir-biriga yaqin bo'lgan tillar yoki shevalarda o'zaro tushunarli darajada so'z boyligi va grammatik xususiyatlari saqlanib qolishi mumkin. Umuman aloqasi bo'lmagan tillar o'zaro konvergent yaqinlasha oladi²¹. Bir tilning boshqasiga ta'sir qilishi muhim bo'lib, bu ma'lum bir aholining tilini ikkinchisiga to'liq almashtirish holatidir.

Adstrat atamasi lotincha "ad" – birga, yonida hamda "strata" qatlam ma'nolaridagi so'zlardan olingan bo'lib, turli xalqlarning uzoq muddatli lingvistik aloqalari tufayli bir tilning ikkinchisiga ta'siridir²². Umuman olganda, adstrat turli xalqlarning uzoq vaqt davomida bir mintaqada hamda til aloqalari sharoitlarida yashashi natijasida ularning tabiati va mazkur munosabatlar keltirib chiqaradigan muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar asosida shakllangan til sistemasining umumiy belgilar majmuidir. Masalan, o'zbek tilida arab, tojik, rus tillari kabi noqarindosh tillardan olingan o'zlashmalar miqdori ko'p. Bunga sabab o'zbek va tojik, o'zbek va rus tillarining o'zaro ijtimoiy-siyosiy aloqalari hamda ta'sirlari. Bunda har ikki tildagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga xos umumiyliklar adstrat sanaladi. Chunki adstrat umumiy nomda tilga ta'sirni ifodalaydi. Masalan, leksikologiyadagi o'zlashgan so'zlar buning yorqin isbotidir. Adstrat jarayonida etnik bir-biriga moslashish va bir tilning ikkinchisi ichida yo'qolib ketish hodisasi sodir bo'lmaydi.

Ikki tilning o'zaro chatishuvi natijasida bir til elementlarining boshqa bir til tuzilishidagi belgilari substrat va superstrat hodisalari deb yuritiladi. Substrat so'zi

²¹ Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Т., 1991. – С. 58.

²² Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Т., 1991. – С. 60.

lotincha “sub” tag, “strata” qatlam m’nolaridan olingan²³. Substrat muayyan bir lingvogeografik hududda tarqalgan tildagi barcha sathlarga mansub belgi va hodisalarning majmuidir. Bu belgi va hodisalar kelib chiqishiga ko‘ra avval shu hududda mavjud bo‘lib, keyin yo‘qolib ketgan tilga tegishli bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda, substrat mag‘lub tilning g‘olib tilda qoldirgan izlaridir. Umuman olganda, substrat keng etnik aralashuv va ikki tillilik orqali mahalliy xalq tilining kelgindilar tiliga singib ketishidir. Substrat nazariyasi XIX asr boshlarida Y.Bredsdorf qarashlari asosida paydo bo‘lib, hind-yevropa tilshunosligi tarixida katta rol o‘ynadi.

Substrat hodisasini o‘rganayotganda quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Turkiy til turkiy so‘zni siqib chiqaradi. Qurilishi bir xil bo‘lgan bir tizimdagi qarindosh tillar o‘rtasida ham kurash mavjud: tosh – tas, bag – bav, kel – gel; qo‘l – al, ilik, yiroq – iroq, qarluqcha yilon so‘zi qipchoq shevasidagi jilan ko‘rinishlarini o‘g‘uz lahjasiga xos ilon so‘zini chiqarib yuborgan;

